

XII. XORAZM VILOYATINING DOIMIY AHOLISI



Demografiya statistikasi –

ijtimoiy-iqtisodiy statistika sohalaridan biri bo‘lib, aholi soni, tarkibi, aholi yoki uning guruhlari joylashuvi va takror hosil bo‘lishi bilan bog‘liq ma‘lumotlarni statistik usullardan foydalangan holda yig‘ish, qayta ishlash, ifodalash va tahlil qilish faoliyati bilan shug‘ullanadi.



Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar




33,0%

Qishloq




67,0%

Xorazm viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar 2024- yil 1-iyul holatiga



Aholining o‘rtacha yoshi

yil boshiga



Aholining o‘rtacha yoshi - bu aholining yosh tarkibining taxminiy umumiy tavsifi. U umumiy aholi tarkibidagi barcha odamlarning yoshlarining o‘rtacha arifmetik qiymati sifatida hisoblanadi. O‘rtacha yosh – bu aholi soni jihatidan teng bo‘lgan ikkita guruhga bo‘lingan yosh bo‘lib, ularning birinchi yarmi yosh, ikkinchi yarmi esa katta.


Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

1- iyul holatiga, ming kishi

Shahar va tumanlar nomi	2023- yil	2024- yil	O‘sish sur‘ati, % da
Viloyat bo‘yicha	1971,7	2009,2	101,9
shaharlar :			
Urganch sh.	151,7	154,3	101,7
Xiva sh.	97,6	99,1	101,5
tumanlar:			
Bog‘ot	173,9	177,4	102,0
Gurlan	155,6	158,3	101,7
Qo‘shko‘pir	179,7	183,1	101,9
Urganch	211,0	215,5	102,1
Hazorasp	203,6	207,5	101,9
Tuproqqal‘a	58,6	59,9	102,2
Xonqa	196,2	199,8	101,8
Xiva	152,5	155,9	102,2
Shovot	178,1	181,5	101,9
Yangiariq	121,7	123,8	101,7
Yangibozor	91,5	93,1	101,7

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi


2024- yil 1- iyul holatiga, ming kishi



Xorazm viloyati shahar va tumanlari kesimida 2024- yil 1- iyul holatiga eng ko'p aholining ko'payishi Tuproqqal'a va Xiva tumanlari 102,2 foizni , Urganch tumani 102,1 foizni, Bog'ot tumani 102,0 foizni, Qo'shko'pir, Hazorasp va Shovot tumanlarida 101,9 kishini tashkil etgani kuzatildi.

Xorazm viloyati bo'yicha aholi zichligi

2024- yil 1- iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



Viloyatda 2024- yil 1- iyul holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **332** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 6 kishiga ortgan (2023- yilda 1 kv.km.ga 326 kishi).


Shahar va tumanlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida **5143** kishi, Xiva shahrida **3303** kishi, Urganch tumanida **479** kishi, Hazorasp tumanida **461** kishi, Xonqa tumanida **465** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Tuproqqal'a tumanida **37** kishi, Yangibozor tumanida **310** kishi, Yangiariq tumanida **274** kishi, Qo'shko'pir tumanida **339** kishini tashkil etgan.

Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni, kishida

Shahar va tumanlar	Jami	shu jumladan:	
		erkaklar	ayollar
Viloyat bo‘yicha:	18708	9778	8930
Urganch sh.	1741	934	807
Xiva sh.	784	395	389
Bog‘ot	1766	957	809
Gurlan	1560	805	755
Qo‘shko‘pir	1346	719	627
Urganch	1971	996	975
Hazorasp	2271	1196	1075
Tuproqqal‘a	627	329	298
Xonqa	1956	1043	913
Xiva	1210	626	584
Shovot	1543	785	758
Yangiariq	1053	549	504
Yangibozor	880	444	436

Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti

(2024- yil yanvar–iyun oylari)




2024-yil yanvar-iyun oylarida 18 708 ta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 18,8 promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2023- yilga nisbatan 0,6 promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-iyun oylarida 19,4 promilleni tashkil etgan).

Hududlar kesimida vafot etganlar soni, kishida

Shahar va tumanlar	Jami	shu jumladan:	
		erkaklar	ayollar
Viloyat bo'yicha	4241	2329	1912
Urganch sh.	501	271	230
Xiva sh.	225	123	102
Bog'ot	366	211	155
Gurlan	329	176	153
Qo'shko'pir	367	200	167
Urganch	410	223	187
Hazorasp	433	237	196
Tuproqqal'a	116	72	44
Xonqa	352	195	157
Xiva	278	152	126
Shovot	371	193	178
Yangiariq	290	146	144
Yangibozor	203	130	73

Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsienti


(2024- yil yanvar–iyun oylari)



2024-yilning yanvar-iyun oylarida 4 241 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil etgan hamda 2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,1 promillega kamaygani kuzatildi (2023- yilda 4,4 promilleni tashkil etgan).

O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-iyun, kishi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o'lim holatining 50,1 %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,9 %i – o'simtalardan, 5,3 %i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 4,9 %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,8 %i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1,0 %i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 23,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.


Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralganlar soni

(2024- yil yanvar–iyun oylari)

Shahar va tumanlar	Jami tuzilgan nikohlar soni	Jami nikohdan ajrashganlar soni
Viloyat bo'yicha	7503	988
Urganch sh.	459	137
Xiva sh.	396	55
Bog'ot	632	67
Gurlan	691	63
Qo'shko'pir	723	92
Urganch	727	96
Hazorasp	704	113
Tuproqqal'a	216	46
Xonqa	804	79
Xiva	647	48
Shovot	688	84
Yangiariq	468	66
Yangibozor	348	42

Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralganlar koeffitsienti

(2024- yil yanvar–iyun ,promille)



Viloyat bo'yicha tuzilgan nikohlar soni
2023- yilning yanvar- iyun oylarida 7 696 kishini,
har 1000 aholiga nikohlar koeffitsiyenti
7,9 promilleni tashkil etgan.




2024- yilning yanvar-iyun oylarida 7 503 ta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 7,3 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,6 promillega kamaygani kuzatildi (2023-yilning yanvar-iyun oylarida 7,9 promille bo'lgan).



Viloyat bo'yicha nikohdan ajrashganlarning soni 2023- yilning yanvar-iyun oylarida 1276 kishini, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,3 promilleni tashkil etgan.

2024-yil yanvar-iyun oylarida 988 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilga nisbatan 0,3 promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yil yanvar-iyun oylarida 1,3 promille bo'lgan).



AHOLI MIGRATSIYASI

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni
(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar, kishida)

Shahar va tumanlar	2023 - yil yanvar- iyun			2024- yil yanvar- iyun		
	<i>Ko'chib kelganlar</i>	<i>Ko'chib ketganlar</i>	<i>Migratsiy a saldos</i>	<i>Ko'chib kelganlar</i>	<i>Ko'chib ketganlar</i>	<i>Migratsiy a saldos</i>
Viloyat bo'yicha	3925	4871	-946	5335	6196	-861
<i>shaharlar:</i>						
<i>Urganch sh.</i>	1013	1212	-199	1409	1465	-56
<i>Xiva sh.</i>	242	296	-54	197	488	-291
<i>tumanlar:</i>						
<i>Bog'ot</i>	101	181	-80	116	179	-63
<i>Gurlan</i>	96	251	-155	163	361	-198
<i>Qo'shko'pir</i>	127	276	-149	206	371	-165
<i>Urganch</i>	1007	738	269	1399	986	413
<i>Hazorasp</i>	155	485	-330	216	491	-275
<i>Tuproqqal'a</i>	362	198	164	486	354	132
<i>Xonqa</i>	104	299	-195	145	380	-235
<i>Xiva</i>	267	324	-57	465	357	108
<i>Shovot</i>	127	283	-156	210	326	-116
<i>Yangiariq</i>	188	186	2	156	233	-77
<i>Yangibozor</i>	136	142	-6	167	205	-38

2024- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni 5 335 kishini tashkil etdi.

Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami 6 196 kishini, migratsiya saldosi minus 861 kishini tashkil etdi. (2023- yil yanvar-iyun oylarida minus 946 kishini tashkil etgan).



2024-yilning yanvar-iyun oylarida 5335 ta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti 5,4 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 1,4 promillega ko‘payganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-iyun oylarida 4,0 promille bo‘lgan).



2024- yilning yanvar-iyun oylarida 6196 ta ko‘chib ketganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib ketish koeffitsiyenti 6,2 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 1,2 promillega ko‘payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 5,0 promille bo‘lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar.

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.